

**PEDAGOGLAR.UZ**  
*Scientific Research Center*

# **PEDAGOGS**

*legal, medical, social, scientific journal*

**Volume-21, Issue-2, November–2022**

**IN ALL AREAS**



**ICI JOURNALS  
MASTER LIST**

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA O'QISHGA BO'LGAN  
QIZIQISHNI KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

**UMAROVA GULHAYO MURODILJONOVNA**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi*

Maktabdagagi o'quv faoliyati kichik mактаб yoshidagi o'quvchi o'zi uchun o'qish shart ekanligini va u uning burchi ekanligini, belgilab qo'yilgan qoida va talablar bajarilishi shartligini anglaydi. O'zini haqiqiy o'quvchidek his qilgan holda unda yaxshi o'qishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Kichik mактаб yoshidagi bolalarning qiziqishlarida samarali o'qish uchun halaqit beruvchi qator salbiy xarakteristikalarini ham mavjud. Kichik mактаб yoshidagi o'quvchilarning qiziqishlari:

- yetarlicha amaliy natija bera olmaydi;
- qat'iy emas, vaziyatli;
- tez qondiriladi va ustozning qo'llab-quvvatlashisiz tez so'nadi;
- o'quv materiali va topshiriqlar o'quvchining joniga tez tegadi va charchashni yuzaga keltiradi;
- kam anglanilgan, o'quvchining ma'lum bir predmetdagi nima yoqishini va nima uchun yoqishini aytib bera olmasligida ko'rindi;
- umumlashtirishning pastligi, bir yoki bir nechta predmetlarning tashqi belgilarigagina qarab umumlashtirish;
- o'quvchini o'qishning o'quv faoliyatining usullariga emas, balki natijalariga yo'nalganligi.

Shuning uchun ham mzkur muammolarni hal etish maqsadida boshlang'ich sinf o'qituvchilari bir qator metodlardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bugungi kunda bir [www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida imkoniyat yaratilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan maktablarda keng qo'llanayotgan klasterli yondashuv jarayonini bir butun holatda amalga oshirishda muammolarni yechishda dars jarayonini oqilona tashkil qilishda, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirishda, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llashda amaliy mashqlarni mustaqil bajarishda biror faoliyat yoki muammo o'zaro muloqot, o'zaro bahsmunozarada fikrlashda hamjihatlik bilan masalalarining yechimida o'z samarasini ko'rsatadi.

Bu usulning afzalligi shundaki, o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O'qitishning klaster usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi. Klaster metodi deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida bo'lgan ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchini faol ishtirop etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi o'qitish jarayoni davomida faol ishtirop etadi. Ushbu jarayonda ta'lim oluvchilar o'qib-o'rganishni yuqori darajada bo'lishini, egallagan bilimlarni maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirishda tashabbuskorligi va mas'uliyat, qo'llab-quvvatlash amalda bajarish orqali fikrmulohazalar qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'qitish jarayonida klaster metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. «Klaster» metodini o'tkazish texnologiyasini amalga oshirishda

- o'quvchi nimani o'ylagan bo'lsa, shuni qog'ozga yozadi. U o'z fikrlarining sifati to'g'risida o'ylab o'tirmay, ularni shunchaki yozib boradi. Yozuvining orfografiyasini yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermaydi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to'xtamaydi. Agar o'quvchi ma'lum muddat biror-bir g'oyani o'ylay olmasa, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chiza boshlaydi. Ma'lum bir tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surish hamda ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qiladi. G'oyalar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatish cheklanmaydi. «Klaster»

metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan ta'lif oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida amalga oshiriladi.

Klaster inglizcha so'z bo'lib (kluster) – bir butun holatda ma'lum mavzu bo'yicha erkin va ochiq fikrlashning notekis shaklini namoyon etadi. Klaster metodini amalga oshirishda yangi mavzuning asosiy tushunchasi aylanma shaklidagi chizma ichida yoziladi.

Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilardagi dars mashg'ulotlarda ushbu metod guruh a'zolari tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa guruhning har bir a'zosi tomonidan ilgari surilayotgan bilimlarni uyg'unlashtirish hamda ular o'rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi fikrlarni ilgari surish hamda mazkur bilimlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qiling. Fikrlar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamaslik kerak bo'ladi. Dars samaradorligini oshirishda innovatsion usullardan foydalanish boshlang'ich sinf o'qituvchilari mahoratini oshirish avvalo ularning maxsus kasbiy salohiyatiga bogliq. Innovatsion usullardan foydalanish o'qitiladigan fanlarning soatini inobatga olgan holda ular bilimini oshirish muammosini ham har hil yo'llar bilan hal qilish zarur. Ammo, klaster metodi mahorati shunday universal komponentlarni o'z ichiga qamrab oladiki, ushbu komponentlardan turli o'quv fanlari pedagoglari foydalana oladilar va bu yo'nalishda ular tez vaqtda yaxshi natijaga erishishlari mumkin. Salohiyat aniq fan yo'nalishida aniq ishni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan o'ziga hos hususiyatni bildiradi. Salohiyat tushunchasi o'z ichiga maxsus bilimlar, o'ziga xos ko'nikmalar, fikrlash usullarini va o'z harakatlariga javobgarlikni tushunishni qamrab oladi. Yana shu ham ma'lumki, o'qituvchilar o'tkazilayotgan mashg'ulotlardan, o'zi qilayotgan ishidan qoniqish hosil qilishi ham juda katta ahamiyatga ega desak to'g'ri bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akhmedov, B. A., Eshnazarova, M. Yu., Rustamov, U. R., Xudoyberdiyev, R. F. (2020). Cluster method of using mobile applications in the education process. Экономика и социум, 12(79), 809-811.

2. Akhmedov, B. A., Kuchkarov, Sh. F., (2020). CLUSTER METHODS OF LEARNING ENGLISH USING INFORMATION TECHNOLOGY. SCIENTIFIC PROGRESS, 1(2), 40-43
3. Ziyonet.uz